
BAYRAM TUHFASI: MAHALLA YOSHLARI UCHUN ZAMONAVIY SPORT MAYDONCHALARI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

“Besh tashabbus olimpiadasi” sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etish, barqaror ijtimoiy-maʼnaviy muhitni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, “Besh tashabbus olimpiadasi” gʻoliblariga mahallalarda universal sport maydonchalari qurish uchun davlat byudjetidan mablagʻ ajratilishi natijasida yoshlar oʻrtasida sportga eʼtibor yanada kuchaymoqda.

Mustaqilligimizning 33 yilligi arafasida tumandagi “Jarqishloq”, “Obisiyo”, “Guzarboshi” hamda “Soyboʻyi” mahalla fuqarolar yigʻinlarida universal sport maydonchalari foydalanishga topshirildi.

“Jarqishloq” MFY yoshlari “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida oʻtkazilgan voleybol musobaqasida Respublika bosqichida 1-oʻrinni egallaganligi uchun 300 mln. soʻm mablagʻ evaziga sport maydonchasi qurib bitkazildi. Oʻzbekiston Respublikasi Sport vazirligi tashabbusi bilan “Obisiyo” mahallasida 300 mln. soʻmlik, “Guzarboshi” MFYda 200 mln. soʻmlik hamda “Soyboʻyi” mahallasi yoshlari uchun 200 mln. soʻm mablagʻ evaziga sport maydonchalari foydalanishga topshirildi.

Ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda nuroniylar, mahalla faollari, yoshlar ishtirok etdilar. Tuman hokimi mamlakatimizda sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan saʼy-harakatlar hamda bu yoʻnalishda yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar hususida taʼkidlab oʻtdi.

2024-08-30 09:55:23